

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

LATIPOV MUROTALI MANNOBOVICH

**IS'HOQXON IBRAT ASARLARINING LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Latipov Murotali Mannobovich

Is’hoqxon Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlari 3

Латипов Муротали Маннобович

Лексико-грамматические особенности произведений Исхак-Хана
Ибрата..... 25

Latipov Murotali Mannobovich

Lexical and Grammatical Features of the Works by Iskhakhan Ibrat 50

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

LATIPOV MUROTALI MANNOBOVICH

**IS'HOQXON IBRAT ASARLARINING LEKSIK-GRAMMATIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fil 1326 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Normamatov Sultonbek Ermamatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mamatov Abdug'ofur Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Turdibekov Mo'min To'rayevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" iyun soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (19 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:120100, Guliston sh, 4-mavze. Tel.:(99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" may kuni tarqatildi.
(2024-yil "27" may daqi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Mamatqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Axrorov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G. Sharipov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida milliy tillar tarixiy taraqqiyotini o'rganish, til qurilishidagi o'zgarishlar, leksik sathning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy voqeligi asosida boyib borishini tekshirish va baholash masalalari kun tartibida muntazam ravishda muhokama markazida bo'lib kelmoqda. Muayyan til taraqqiyotida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalaridagi voqea-hodisalar va ularni o'zida yaqqol namoyon etuvchi yozma manbalar muhim o'rin egallaydi. Til va jamiyat munosabatlarining til leksikasida aks etishi, shu tilda yaratilgan tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar orqali yaqqol namoyon bo'lishi inobatga olinsa, muayyan ijodkor asarlarining lingvistik aspektidagi tadqiqi, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, jamiyatshunoslik, tarix, madaniyat kabi sohalaridagi nazariy-amaliy masalalarning ilmiy asoslarda xolis hal qilinishi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligining keyingi davr taraqqiyotida milliy tillar, umumxalq tili va adabiy til munosabatining turli aspektida o'rganilishiga, milliy tillar tarixi rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan muayyan ijodkor asarlarining o'rni va ahamiyatini belgilashga doir badiiy asar tili tadqiqi masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jamiyat hayotining tarixi va buguni kesishuv nuqtasining o'sha jamiyat tilining leksikasi sifatida qayd qilinishi leksikologiyaga oid tadqiqotlarda jiddiy yondashuvni belgilaydi. Ayni holat muayyan til tarixiy davriga oid asarlarning leksik-grammatik jihatdan tekshirish zarurligini kun tartibiga qo'yadi. Bu esa milliy til va adabiyot, milliy madaniyat va taraqqiyot omillarini belgilash va bu yo'nalishda ustuvor vazifalarning amalga oshirilishini taqozo qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tili tarixi, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, lug'at boyligi va uning tarixiy o'zgarishlari, taraqqiyot omillari, ularga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri masalalarini haqqoniy baholash imkoniyati yuzaga keldi. Xalqning millat sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan ulug' ijodkorlar yaratgan asarlarning til xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, shu asosda chiqarilgan muhim ilmiy-nazariy xulosalar o'sha davr til tizimini, milliy tilning shu bosqichidagi amaliy holatini, lug'aviy boyligi, grammatik tuzilishi, tasviriy ifoda vositalarini, adabiy tilning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy asosda tushunish va yoritishda ishonchli manba hisoblanadi. Bu jihatdan jadid millatparvarlari asarlarining tili alohida e'tibor va e'tirofga loyiqdir. Zero, "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz"¹.

Bu esa o'zbek tilini har tomonlama rivojlantirish, o'zbek tilining leksikasi, grammatikasi, uslubiyati masalalariga oid lingvistik hodisalarni keng ko'lamda, sog'lom mantiq va ilmiy asoslarda tadqiq qilishni talab etadi. Ayniqsa, o'zbek tilining muayyan davrdagi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan o'zbek jadidlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табрик сўзи. – Тошкент, 2023 йил 6 март // <https://president.uz/uz/lists/view/6007>

va ziyolilari, ijodkorlarining ilmiy, badiiy, publitsistik merosini lingvistik aspektda tadqiq qilish, leksik birliklar, grammatik vositalarning til qurilishi va til taraqqiyotidagi oʻrni, vazifasi va ahamiyatini aniqlash, leksik-grammatik oʻzgarishlarni baholash muhim vazifalar sanaladi. Xususan, oʻzbek xalqi tarixi, madaniyati va maʼnaviyati taraqqiyotida oʻzining munosib oʻrniga ega boʻlgan Isʼhoqxon Ibrat ilmiy-ijodiy merosining, asarlari tilining tadqiq qilinishi ham bu yoʻnalishda dolzarblik kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining oʻttiz yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari maʼlum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tilning, uning lugʻaviy, morfemik boyligining lisoniy imkoniyat sifatida har bir ijodkor asarida oʻziga xos tarzda maʼnoviy-grammatik qoʻllanishiga doir, amaliy-pragmatik ishlov berilgan holda namoyon boʻlishiga oid, voqelanishni aks ettiruvchi lisoniy-nutqiy xususiyatlariga doir tadqiqotlar jahon va oʻzbek tilshunosligida keng koʻlamda izchil amalga oshirilgan², til birliklarining uslubiy³, badiiy imkoniyatlari⁴ atroflicha tadqiq qilingan.

² Рахматуллаева М. Вопросы изучения синонимов в языке Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965; Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1969; Виноградов В. О языке художественной прозы. – Москва: Наука, 1980; Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Новиков Л. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988; Гореликова М., Магомедова Д. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва: Русский язык, 1989; Винокур Г. О языке художественной литературы. – Москва, 1991; Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик катламлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Раҳматова Д. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг лингвистик таълимоти, асарларининг тил ва услуб хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022.

O‘zbek tilshunosligida til imkoniyatlarining turli nutq, uslub talabi bilan bog‘liq xususiyatlari ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilib kelinmoqda. XX asrning birinchi choragidagi lisoniy jarayon, davr adabiy tili leksikasi masalalari, o‘zbek tili grammatikasiga oid qarashlarning qiyosiy tahlili, shu jumladan, o‘zbek jadid ma’rifatparvarlarining o‘zbek milliy tili taraqqiyotidagi xizmati, asarlarining lisoniy qiymati, bu davrdagi lingvistik munozaralarning nazariy ahamiyati kabi masalalar S.Normamatov, Sh.Bobomurodova, Q.Qodirov, Y.Sayidov, N.Yangiboyevalarning ilmiy tadqiqotlarida⁵ o‘z ifodasini topgan. Ko‘pqirrali ijodkor Is’hoqxon to‘ra Ibratning ilmiy-ijodiy merosi ham adabiyotshunoslarimiz, tarixchilarimiz tomonidan o‘rganilib⁶, jiddiy natija va xulosalarga erishilgan. Biroq Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning leksik-grammatik xususiyatlari hozirgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus tekshirilmagan. Bunday tadqiqotning amalga oshirilishi esa o‘zbek tilining XX asr boshlarida yuz bergan leksik-morfologik tizimidagi o‘zgarishlar va ularning omillari, semantik-funksional, grammatik xususiyatlari, til birliklarining uslubiy ma’no-vazifalarini o‘sha davr asarlari tili asosida yoritishda, jadidchilik harakati davrining ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy manzarasini yanada xolis baholash, tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, jadid ma’rifatparvarlarining yirik nomoyandasi hisoblangan Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlarining leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini monografik planda o‘rganilishi davr adabiy tili va tilshunosligiga oid mavjud nazariy bilimlarni muayyan darajada boyishiga xizmat qiladi.

³ Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1975; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.

⁴ Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр”. – Ташкент, 1982; Мирзаев И. Проблем лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991; Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. -№4; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. ва бошқалар.

⁵ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитғучи” журнали материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019; Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020.

⁶ Долимов У. Ўзбек маърифатпарвар шоири Ибратнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1971; Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999; Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994; Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов., Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2005; Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Бобобеков., М.Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991; Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари. – Наманган, 1999; Болтабоева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намоёндалари, анъаналари, янгилиниши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019; Афокова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005; Абдуллаева М. Исҳоқхон Ибрат – серқирра ижод соҳиби. – Тошкент: Наврўз, 2018; Йўлдошев И., Уматов Р. Ибрат изларидан. – Наманган, 2014; Махмуд Л. Исҳоқхон Ибрат яратган бог. – Наманган, 2018.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Is'hoqxon Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash, tasniflash va tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ibrat ijodiga mansub asarlarning filologik tadqiqini umumlashtirish, adib asarlarining o'zbek tilshunosligidagi o'rni va ahamiyatini baholash;

Ibrat asarlarining o'zbek tili leksikasi taraqqiyotidagi o'rnini belgilash, publitsistik asarlaridagi ijtimoiy-maishiy leksikani tahlil qilish;

Is'hoqxon Ibratning so'z tanlash va qo'llash mahorati, uslubini o'rganish; ijodkor asarlari leksikasi tarkibini kuzatish, o'z va o'zlashgan qatlam birliklaridan foydalanish munosabatini tahlil qilish, tasniflash va tavsiflash;

Ibratning badiiy, tarixiy, publitsistik asarlarida qo'llangan yasama so'zlarning derivatsion, morfologik xususiyatlarini, morfologik vositalarning grammatik strukturasi tadqiq qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida Is'hoqxon Ibratning Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalari, 1901-yil Toshkentda nashr etilgan "Lug'oti sitta alsina" (eski o'zbek yozuvida) leksikografik asari hamda 2020-yil "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Tanlangan asarlar"i to'plamiga kiritilgan badiiy, tarixiy va publitsistik asarlari olindi.

Tadqiqotning predmetini Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, sinxron, kontekstual, statistik, leksikografik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqimiz tarixi, madaniyati, adabiyoti, ta'limi va tili rivojida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan adib Is'hoqxon Ibratning nazmiy, nasriy, leksikografik, ilmiy, publitsistik asarlarining leksik va grammatik tahlili asosida davr adabiy tilining leksik-morfologik imkoniyatlari ochib berilgan;

ijtimoiy-siyosiy terminlar, qarindoshlik nomlari, geografik joy, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat va ichimlik nomlari, o'rin-makoni bildiruvchi otlar, koinot jismlari nomlari, zoonim, fitonim kabi atoqli ot guruhiga mansub leksemalar o'ttizga yaqin mavzuiy guruhlarga ajratilib tahlil qilingan, adib asarlarida qo'llangan leksik birliklarning asosiy qismi o'z qatlamga mansub ekanligi isbotlangan;

adib asarlari tilida *-xona, -dosh, -chi, -be, -ba, -no, -vor -iy, -viy, -obod, -iya, -iyat* kabi so'z yasovchilar o'zbek tilidagi mahsuldor so'z yasash modellari asosida yasalgan leksemalarning katta miqdorni tashkil etishi aniqlangan. Shuningdek, bu vositalar muallifning badiiy nutq va uslubiga xos okkazional yasama so'zlarda yasovchi vosita sifatida xizmat qilganligi dalillangan;

jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqining lisoniy belgilari bilan adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari unsurlarini qiyoslab o‘rganish natijalari o‘tmishdagi jonli xalq tiliga xos tarixiy-lisoniy xususiyatlarni aniqlashda muhim asos bo‘lishi Ibrat asarlarining morfologik jihatdan o‘rganilishi asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibrat asarlari leksikasi o‘z va o‘zlashgan qatlam nuqtayi nazaridan tasniflangan va tavsiflangan, asarlari matnida qo‘llangan leksik, morfologik birliklarning genetik, semantik, grammatik, nutqiy belgi-xususiyatlari ijtimoiy hayotning turli omillari ta’siri natijasida namoyon bo‘lganligi, davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy omillari bilan bog‘liqligi dalillangan;

ijodkor asarlarining matnida qo‘llangan yasama so‘z va okkazonal ma’noli birliklar tahlilidan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar o‘zbek tili tarixiy leksikasining nazariy va amaliy asoslari hamda tahlil usullarini boyitishi asoslangan;

Ibratning badiiy, tarixiy, publitsistik asarlari matnida qo‘llangan leksik va morfologik birliklarning ilmiy tadqiqi natijalari o‘zbek tili leksikologiyasi, derivatsiyasi, morfologiyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, leksikografik mahsulotlar tayyorlashda manba sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va natijalar o‘zbek tili leksikasi, derivatsiyasi, morfologiyasi bo‘yicha lingvistik tadqiqot olib borish, yasama birliklarning leksik-semantik, uzual va okkazonal ma’nolarini belgilash, o‘zbek tili leksikasi va grammatikasidagi tadrijiy o‘zgarishlarni baholash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan “O‘zbek leksikologiyasi”, “O‘zbek leksikografiyasi”, “O‘zbek tili so‘z yasalishi”, “O‘zbek tili morfologiyasi” kabi fanlarga aloqador nazariy-amaliy muammolar tahlili, o‘zbek tilining leksikasi, so‘z yasalishi, morfologik vositalari talqiniga doir ilmiy-nazariy yondashuvlarni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot jarayonida erishilgan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

Is’hoqxon Ibratning nazmiy, nasriy, lug‘atchilikka oid asarlarining leksik-grammatik tahlili, XX asr boshlaridagi davr adabiy tili va funksional uslublarning o‘ziga xos ko‘rinish va lisoniy imkoniyatlari belgilanishi yuzasidan chiqarilgan nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030-raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-avgustdagi 02/1-1505-sonli ma’lumotnomasi).

Natijada monografiyaning XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid qismi adabiy tur va janrlar tahlili, ularning uslubiy ko‘rinishlari, adabiy an‘ana va o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lishiga oid yangi ma‘lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

tadqiqotdagi o‘z qatlam birliklari nomi ostida tavsiflangan ijtimoiy-siyosiy terminlar, qarindoshlik nomlari, geografik joy, uy-ro‘zg‘or buyumlari, oziq-ovqat va ichimlik nomlari, o‘rin-makonni bildiruvchi otlar, koinot jismlari nomlari, zoonim, fitonim kabi atoqli otlarga mansub leksemalarning mavzuiy guruhlar asosidagi tahlili natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan BV-Atex-2018-(143) raqamli “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-avgustdagi 02/1-1506-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur grant loyihasi doirasida tayyorlangan o‘quv-uslubiy lug‘atda o‘z qatlam so‘zlarining semantik tabiatini to‘laqonli tavsiflash, izohlashga erishilgan;

o‘zbek tilining tadrijiy taraqqiyotida jadid ma‘rifatparvarlari yaratgan asarlarning o‘rni va ahamiyati, Ibrat asarlarining leksik-grammatik jihatdan o‘rganilishi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanali DM tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida namoyish etilgan “Tarixiy savol” tok-shousi, “Taqdimot” ko‘rsatuvi, shuningdek, “O‘zbekiston” telekanalida namoyish etilgan “Oydin hayot-live” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanalining 2023-yil 3-avgustdagi 02-06-1172-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan holda ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 11 ta, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbek filologiyasida Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining o‘rganilishi**” deb nomlangan birinchi bobi uch bo‘limdan iborat. Bobning “Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining tadqiqi” deb nomlangan birinchi bo‘limida adib ilmiy-ijodiy merosining tadqiqi, u yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning filologik aspektidagi o‘rganilish darajasi izohlangan. O‘zbek jadid ma‘rifatparvarlari asarlari sirasida Ibrat ijodiy merosining g‘oyaviy, badiiy ahamiyati, bu asarlarning XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining shakllanishidagi o‘rni kabi masalalar yoritilgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlarining asosiy mavzu va motivini yurtni mustamlakachilardan ozod ko‘rish, ilm va ma‘rifat orqali jamiyatni tanazzuldan olib chiqish, ozod yurtda fozil fuqaroni kamol toptirishga da‘vat etish g‘oyalari tashkil etar ekan, yaratgan asarlarining lug‘aviy tarkibi, badiiy-funksional xususiyatlari ham mana shu maqsad sari yo‘naltirilganligi ko‘zga tashlanadi. Mazkur bo‘limda filologik fanlar kesishuvida Ibratning shoirona tashbehlar, poetik tasvir hosil qilish, badiiy san‘at namunalarini mohirona yaratish, so‘zning badiiy tasvir imkoniyatlaridan unumli foydalana olish mahorati kabi masalalar tahliliga bag‘ishlangan izlanishlarga ham izoh berilgan. Adib o‘zbek tilining emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini badiiy voqelantirishda mumtoz adabiyotimiz an‘analarini o‘z ijodiy asarlarida munosib ravishda davom ettiradi, g‘azal janrida nafaqat yor, go‘zallik, ishq, muhabbatni, balki ijtimoiy-siyosiy, ta‘limiy masalalarni ham keng yoritadi. Shu sababli Ibrat adabiy merosining tadqiqi orqali davr va jamiyat masalalarining nafaqat badiiy, tarixiy, ijtimoiy talqini haqida, balki o‘sha davr o‘zbek tilining leksik-grammatik, uslubiy xususiyatlari, fikr ifodalashning davr tiliga xos lisoniy-nutqiy qurilmalari, ifoda va tasvir vositalari yuzasidan ham muayyan ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

“Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosi tilshunoslik obyekti sifatida” deb nomlangan ikkinchi bo‘limda dastlab adibning tilshunoslikka oid qarashlari, tilning ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi masalasi, til bilishning esa jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati, o‘zbek tilining grammatik xususiyatlarini puxta o‘zlashtirish, o‘z davridagi maktab va maorif tizimida til bilimi, til ilmi bo‘yicha yangi islohotlarni amalga oshirish zarurligi xususidagi fikrlari yoritilgan.

Darhaqiqat, adib ijodida jamiyatdagi boshqa ijtimoiy-siyosiy muammolar qatorida milliy til masalasi, yoshlarni ona yurt, ona tili va millatga sadoqat, ilm-ma‘rifatga muhabbat ruhida tarbiyalash g‘oyasi ham yetakchilik qiladi, bu esa uning o‘z davrining yetuk tilshunos olimi bo‘lganligini ham isbotlaydi. Yurtboshimiz tomonidan Is’hoqxon Ibratning milliy til, uning ravnaqi va istiqboli borasidagi millatparvarlik faoliyati, ko‘p til bilish borasida amalga oshirgan ilmiy va amaliy izlanishlari alohida ta‘kidlab o‘tilgani bejiz emas: “XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Is’hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa‘y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga

to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”⁷. Dissertatsiyaning “Kirish” qismida ta’kidlanganidek, Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning lisoniy xususiyatlari hozirgacha alohida monografik tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, XX asr boshlari o‘zbek milliy tili va tilshunosligi, leksikografiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim ishlarda boshqa jadid ma’rifatparvarlari qatorida adib ijodiga ham qisman murojaat qilingan o‘rinlar mavjudligi kuzatiladi. Mazkur bo‘limda adibning yozuvlar tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan asari “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) hamda leksikografiyaga oid “Lug‘oti sitta al-sina” (“Olti tilli lug‘at”) asari bo‘yicha U.Dolimov, N.Jabborov, A.Madvaliyev, Y.Sayidov, S.Normamatov kabi filolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga⁸ munosabat bildirilgan.

Bobning uchinchi bo‘limi “Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy holatining aks etishi” deb nomlanadi. Unda o‘lkamizning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog‘liq jarayonlar, o‘zgarish va yangilanishlarning o‘zbek tili leksik tarkibida namoyon bo‘lish holati adib publitsistik asarlari matnidagi so‘z va atamalarning semantik-funksional tahlili, mavzuiy tasnifi asosida amalga oshirilgan. Ijtimoiy-siyosiy leksika alohida qatlam sifatida mavjud ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Unda ta’kidlanishicha, bu qatlamning yuzaga kelishi jamiyatda ishlab chiqarish usulining rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish qurollarining yaratilishi, xalq xo‘jaligi va madaniy hayotda yangi predmet, jarayon, tushunchalar paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi⁹. Bu holat davr adabiy tili leksikasida yangi so‘z va terminlarning yuzaga kelishida bosh omillardan sanaladi. Buning isbotini o‘tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayotimizdagi yangilanish va o‘zgarishlarni, tarixiy davr voqea-hodisalarini aks ettirgan o‘sha davr ijodkorlari asarlari tili tahlili misolida yaqqol kuzatish mumkin. Xususan, Ibrat publitsistik asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy va maishiy qatlam leksikasini mavzuiy jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin¹⁰: 1. Lavozim, mansabni ifodalovchi so‘zlar: *qozi, general gubernator, ellikboshi, mingboshi, pristof, hokim, milliy qozi, gubernator, noib* kabilar; 2. Ma’muriy-hududiy bo‘linma va binolar nomi: *viloyat, oblast, uyezd, bo‘lust, qasaba, qo‘rg‘on, musofirxona, idora* kabilar; 3. Ta’lim-tarbiyaga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘z va atamalar: *eski maktab, usuli savtiya maktabi, joriy qizlar maktabi, ta’lim, maktabdor, kaltak, qamchi, alif, babazer, o‘quv-yozuv, axloqi funun, ilmsizlik, imtihon, rusiya zaboni, duvuxklasnoy shko‘l* kabilar; 4. Matbuot nashri nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *gazet, jarida, risola, maqola, Tuzemniy gazet, nomerlik* kabilar; 5. Shaxs otlari: *politsiya, muallim, domla, tijjor, musofir, yo‘lchi, milyuner, kollejiski sekretar, askariya muzikanlar, otliq askar* kabilar; 6. Diniy

⁷ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

⁸ Исҳоқхон Ибрat. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020; Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибрatнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 53-56; Сайидов Ё. Жаҳид бadiий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жаҳид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020.

⁹ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.12.

¹⁰ Misollar Is’hoqxon Ibrat asarlarida uchragan shaklida saqlandi.

tushunchalar bilan bog‘liq so‘z va birikmalar: *olami islom, imom, mullabacha, mufti, zaruriyoti diniy, shariat, mehrob, ahkomi shariat, baytulloh, masjid, jome‘, amri ba ma‘ruf, nahy az munkar, ba‘d az namozi fajr, ba‘d az xufton, va‘z, mo‘min, mav‘izan, axloqi islomiya* kabilar; 7. Kasb-kor, soha nomlarini ifodalovchi so‘zlar: *paxta tijorati, hammol, dehqonchilik hunari, tijorat, zindakorchilik* kabilar; 8. Ot-ulov, texnika, yo‘l bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar: *otash aroba, foytun aroba, kalaska aroba, paraxo‘d, poyezd, ko‘nka elektriya, istansiya, temir yo‘l* kabilar; 9. Narsa-buyum nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *gugurd, lamfa, elektriy lamfa, elektriya chirog‘, ustalovoy lamfa, samovar, telegrom, kerosin, kalosh, Ovrupo libosi, gazlama, lenta, mushak* kabilar; 10. San‘atga oid yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘z va atamalar: *rasm, sinimatagrof pardasi (kino ekrani), fotograf, tomoshaxona* kabilar; 11. O‘lchov ifodalovchi so‘zlar: *so‘m, tiyin, milyun, aqcha, besh ming, o‘n ming* kabilar; 12. Urf-odatlarini ifodalovchi so‘zlar: *uloq, poyga, gapxona, yong‘oq, oshuq, safsata, azkiya*; 13. Ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar: *bonk, firusent, roxsud, ishtarof, sarf-xarajat, isrofgarchilik, saylov, qozi saylovi, polojeniya* kabilar.

Qayd qilinganlardan ma‘lum bo‘ladiki, Is‘hoqxon to‘ra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy tushunchalarini ifodalovchi lug‘aviy birliklar sirasida o‘zbek tilining an‘anaviy tarixiy leksemalari bilan bir qatorda rus tilidan o‘zlashgan yangi tushuncha, narsa-hodisalar nomlari faol qo‘llangan. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotning boshqaruv tizimi, iqtisodiy, maishiy sohalaridagi yangilik va o‘zgarishlar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarga keng murojaat qilinishi kuzatiladi. Bu esa adibning jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi sifatida millatparvarlarning eng oldingi saflarida, qaynoq jabhalarida faoliyat ko‘rsatganidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ibrat asarlari leksikasining tarixiy-etimologik aspekti va leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlanib, unda Ibrat asarlari leksikasida aks etgan o‘z va o‘zlashma qatlam leksemalari, ularning mavzuiy tasnifi hamda ijodkor asarlarida qo‘llangan so‘zlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi masalalari yoritilgan. Bobning “Ibrat asarlari leksikasida o‘z qatlam so‘zlari va ularning mavzuiy tasnifi” deb nomlangan birinchi bo‘limida o‘zbek tili leksikasining boyish yo‘llari, lug‘at tarkibining ichki manbalar asosida boyishidagi vosita va omillar, o‘z qatlam nomi ostidagi umumturkiy so‘zlar, o‘zbekcha so‘zlar va lahjaviy so‘zlarning umumiy tavsifi haqida fikr-mulohaza va tahlillar o‘rin olgan. O‘zbek tilshunosligida mavzuiy guruh tushunchasini atroflicha o‘rgangan E.Begmatov uning badiiy asar leksikasi tadqiqida naqadar ahamiyatli ekanligini quyidagicha ta’kidlaydi: 1) so‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish til leksikasini sistema sifatida tavsiflash va o‘rganish usullaridan biridir; 2) so‘zlarni u yoki bu mavzuiy guruhga mansub deb bilish: a) so‘zlar orasidagi ma’no munosabatlariga; b) so‘zlarning ashyoviylik (predmetlilik) xususiyatiga, ya’ni so‘zning qanday predmet haqidagi tushunchani ifodalashiga; d) so‘zlarning nominatsion belgilariga bog‘liqdir; 3) so‘zlarni mavzuiy guruhlarga bo‘lishda

asosiy o'ldov predmetlilik va nominatsion tomon hisoblanadi¹¹. Shu asosda Ibrat asarlarida qo'llangan o'z qatlam so'zlarining mavzuiy guruhlar bo'yicha tasnifi amalga oshirilgan ekan, asarlar matnida faol qo'llangan o'z qatlamga mansub umumturkiy so'zlarni quyidagi 23 ta mavzuiy guruhga ajratish mumkinligini ko'ramiz: 1. Inson tana a'zolarining nomini ifodalovchi so'zlar: *qo'l, qad, qosh, qon, bag'ir, ko'krak, ko'ks* kabi; 2. Qarindoshlik tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *bobo, ota, er, xotun, bola, o'g'il, qiz, ini, qaynota, orqadosh* kabi; 3. Geografik joy nomlari va relyef otlari: *Farg'ona, To'raqo'rg'on, Toshkand, Xorazm, Buxoro, Samarqand, O'sh; soy, to'qay, yer, ko'l, cho'l, yo'l, tog'* kabi; 4. Shaxs yoshini ifodalovchi so'zlar: *yigit, qari, yosh, bola, chol* kabi; 5. Vaqt tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *tun, kecha, oy (bir necha oy), kun, tong, bugun, erta, ilgari, mangu, o'tmish, yil* kabi; 6. Hayvon nomlarini ifodalovchi so'zlar: *qurt, quzg'un, zog', chayon, qush, ot, bo'ri, teva, it, tovuq, eshak* kabi; 7. O'simlik nomlari: *bug'doy, qovoq, tikan, o'rik, olma, yong'oq, zig'ir* kabilar; 8. Uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi so'zlar: *chiroq, ip, pichoq, qozon, eshik, yostig'ini quritmoq* kabi; 9. Oziq-ovqat va ichimlik nomlarini ifodalovchi so'zlar: *sut, un, suv, qaymoq, saryog' (sariyog'), tuz* kabi; 10. Masofa tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *uzun, yaqin, yiroq* kabi; 11. Tomon, o'rinni ifodalovchi so'zlar: *o'ng, so'l, tomon, yon, chet, oldin, ost, orqa* kabi; 12. Tabiat hodisalarini ifodalovchi so'zlar: *shamol, bulut, chaqmoq* kabi; 13. Osmon jismlarining nomlari: *oy, quyosh, yulduz* kabi; 14. Harbiy terminlar: *o'q, yoy, xanjar, qilich, qalqon, qo'shin, o'rdi* kabi; 15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *ishchi, boy, qul, solig', ellikboshi, xon, qorovul, yo'lovchi, bosmachi, boshchi, to'ra, urush* kabi; 16. Etnonimlar (urug' va xalq nomlarini bildiruvchi so'zlar): *turk, chig'atoy, o'zbek, qoraqalpoq, turkiy, qipchoq* kabi; 17. Mavhum tushunchalarni anglatuvchi so'zlar: *uyqu, yod, qut, ish, qo'rquv, ko'ngil* kabi; 18. Holat-xarakterni ifodalovchi so'zlar: *qorong'u, to'g'ri, yangi, go'zal, ochiq, tentak* kabi; 19. Rang-tus, maza-ta'm, haroratni bildiruvchi so'zlar: *qizil, ko'k, qora, tus, oq, sovuq, quruq, suchuk, shirin* kabi; 20. Narsa-buyum nomlari: *kiyim, eshik, qamchi, beshik, qum, tosh, omoch, mola, sirka, yeng, ko'ylak, yog'och, tuproq-tufrog', to'qmoq, o'tin, to'n, tarozu, nos, o'sma, chiroq, belbog'* kabi; 21. Miqdor, hajm, o'ldovni anglatuvchi so'zlar: *bir, ikki, to'rt, yuz, besh, oz, ko'p, butun, ortiq, og'ir, kichik, ming* kabi; 22. Shaxs tushunchasini bildiruvchi so'zlar: *men/man, san//sen, o'z, biz, ul, alar//ular, birov, kimsa, shu//shul, bu, barcha, kishi* kabi; 23. Harakat-holatni bildiruvchi so'zlar: *sol (moq), ket, tur (moq), ko'r, boq (ing), o'rgul, to'k (ub), ista (r), kelmoq, yig'lamoq, aytmoq, ushlamoq, boqmoq* kabi.

Adib asarlarida harakat-holat, narsa-buyum, geografik joy nomlarini ifodalovchi umumturkiy so'zlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, Ibrat asarlaridagi umumturkiy so'zlarning ko'pchiligi shaxs, qarindoshlik munosabatini, hayvon, qush, o'simlik, tabiiy hodisalar va geografik obyektlarining nomlarini, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi so'zlar bo'lib, ularning asosiy qismi hozirgi adabiy tilimizda deyarli o'zgarishsiz qo'llanadi. Tadqiqotda Ibrat asarlaridagi umumturkiy so'zlarning asosini tashkil qiluvchi qadimgi turkiy

¹¹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 42.

tilga oid leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi nuqtayi nazaridan tavsiflangan. Asarlar matnidagi qadimgi turkiy leksikaning muhim qismini belgi-xususiyat, qarindoshlik, inson tana a'zolari va vaqt tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tashkil etadi. Kasb-kor, mansab-unvon, diniy tasavvur, osmon jismlari, geografik tushunchalarni ifodalovchi lug'aviy birliklar miqdori nisbatan oz. Qadimgi turkiy leksika o'zbek adabiy tilining barcha bosqichlarida bo'lganidek, Ibrat asarlarida ham ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning bir qator tushunchalarini yorqin ifodalash maqsadida faol ishlatilgan.

Bobning ikkinchi bo'limi "Ibrat asarlari leksikasida o'zlashgan va o'zga til elementlari" deb nomlanadi. O'zbek tiliga turli davrlarda, turli tillardan o'zlashgan so'zlarni tadqiq qilish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilgan¹². Olib borilgan izlanishlardan ma'lum bo'lishicha, o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning asosiy qismini fors-tojikcha, arabcha va ruscha-baynalmilal so'zlar tashkil qiladi.

Ma'lumki, o'zlashma so'zlar ularni qabul qilgan til uchun neologizm hisoblanadi. Lekin keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo'ysunishi, xuddi o'z so'zidek tabiiylik va aniqlik kasb etishi, ommalashishi, fonetik qayta shakllanishi, hatto grammatik singishi, so'z yasash tizimida faol ishtirok etishi mumkin. Ana shu lisoniy-nutqiy jarayonlar va ularning uzluksiz takrorlanishi tufayli o'zga til elementi muayyan til leksikasi boyligiga aylanadi. Ibratning nasriy va nazmiy asarlari tilidagi o'zlashmalar, asosan, forsha, arabcha va ruscha baynalmilal so'zlardir. Is'hoqxon Ibrat nazmiy, nasriy asarlarida genetik jihatdan fors-tojik tiliga mansub o'zlashmalardan nutqiy ehtiyoj talab qilgan o'rinlarda keng foydalanganini ko'ramiz. Ibrat jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, oddiy xalqning turmushi, hayotini, maorif, ilm-ma'rifat masalalarini asarlarida tasvirlagan o'rinlarda narsa-buyumlarni ifodalovchi fors-tojikcha o'zlashmalarni: *parda, toj, taxt, xirmon, xok, gavhar, chimmat, zanjir, zahar, qog'oz, kamar, sham, durbin-durobin, chodir, gardish*; oziq-ovqat nomlarini: *non, osh, go'sht, xo'rdani, xo'rish, palov*; qarindoshlikni anglatuvchi nomlarni: *birodar, do'st, farzand, hamroh, oshno, jigarpora, domod, zan, pusht, mehmon, mezbom, damsoz, xesh*; mansab, kasb, nasabiga ko'ra shaxs nomlarini: *shoh, savdogar, dehqon, so'fi, podshoh, usta, rahbar, do'kondor, eshon, ohangar, payk, sarkor*; tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlarini: *gardun, hur, axtar, osmon, moh, sitora*; diniy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi so'zlarni: *xudo, pari, motam, namoz, musulmon, afsona, payg'ambar, jon, parizod, behisht, gunoh, ajdaho, zunnor* kabilarni keng istifoda etadi. Dissertatsiyada adib asarlari matnida qo'llangan bu kabi fors-tojikcha o'zlashmalar 16 ta mavzuiy guruhga ajratilib tahlil qilingan. Fors-tojikcha o'zlashmalar XX asr boshlaridagi davr adabiy tilida o'zbek xalqi ijtimoiy-maishiy hayotining barcha jabhalarida uning o'z so'zidek qabul

¹² Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946; Усмонов О., Хамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960; Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981; Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

qilinganligini va faol iste'molda bo'lganligini Ibrat asarlari misolida ham kuzatish mumkin.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan adiblar o'z asarlari tilida o'zbek tilining lug'aviy boyligidan foydalanganlari holda, an'anaviy arab tili leksik boyligidan ham keng foydalanishgan. Islom dini tili arab tili bo'lganligi, madrasa va maktablarda shu tilda ta'lim berilganligi, ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlari, umuman yozma manbalarning aksariyati arab tilida bo'lganligi, o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llangan arabcha poetik leksikani qo'llash an'anasi hali o'z kuchini yo'qotmaganligi, ko'plab ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy, diniy, falsafiy va boshqa xil tushunchalar arabcha so'z va terminlar yordamida ifodalanganligi mazkur lingvistik jarayonning asosiy sabab va ildizlarini topishga imkon beradi. Is'hoqxon Ibrat ham asarlarida arabcha so'zlardan keng foydalangan, ba'zan ularning an'anaviy ma'nolaridan voz kechib, ularga yangi nominativ va uslubiy ma'nolar yuklagan o'rinlar ham kuzatiladi.

Is'hoqxon Ibrat asarlari tilida qo'llangan asli arabcha so'zlarning mavzuiy guruhlari quyidagicha: diniy-afsonaviy tushuncha va tasavvur nomlari: *ruh, fol, abul bashar, ahodis, vahdat, vojib, zulfiqor, kalomi qadim, kuffor, mushrik, sahoba, sirot, sunniy ul-mazhab, tavhid, xatmi Qur'on*; ilm-fan, ta'lim bilan bog'liq so'zlar: *kutub, manqaba, ma'ol, maoniy, muxobara, sanoe', tadvin, funun, ariza, fan, qalam, madaniyat, ilm, san'at*; makon-zamon tushunchalari bilan bog'liq so'zlar: *avon, azal, aknof, alhol, arz, aflok, kurrai arz, mavzi', maqarri hukumat, tavorix, Mag'rib, Mashriq*; belgi-xususiyat anglatuvchi so'zlar: *zolim, mazlum, munis, qallob*; antroponim va toponimlar: *Laylo, Ra'no, Adan, Rasul, Huvaydo, Sulaymon, Misr, Ayman, Rahim, Shirin, Ka'ba, Shom, Fir'avn*; mavhum tushuncha ifodalovchi so'zlar: *balo, davo, xayol, qimmat, hayot, qadr, hol, haq, la'nat, fikr, ta'sir, nur*; shaxs va jamiyat tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: *anom, a'lam, ahkom, ahvod, mannuha, ma'shar, millat, odam, inson*; tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari: *alfoz, lafz, lison, sukun, tavzih, hikoyat, taxallus, alifbo, ijod, asar, maqol, ash'or, masnaviy*; harbiy terminlar: *asbobi harb, zobit, muxoraba, muhosara, muqofizat, solor, g'oziy, sayf* va boshqalar. Ishda bu kabi arabcha o'zlashmalar 15 ta mavzuiy guruhga ajratilib tahlilga tortilgan. Adibning nazmiy, nasriy asarlari leksikasida yuqorida keltirilgan genetik jihatdan fors-tojikcha hamda arabcha so'zlarning uchrashi va ulardan shoirning o'rinli va mohirlik bilan foydalanishi muallifning arab va fors-tojik tillarini, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti tili me'yorlarini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Ibrat asarlarida rus tili va u orqali kirib kelgan Yevropa tillariga oid leksik birliklar alohida lug'aviy qatlamni tashkil etadi. Ularning mavzuiy guruhlari quyidagicha: antroponimlar: *Kaufman, Sams'o'nov*; toponimlar: *Maskov, Rusiya, Petrograd-Petrograd, Ades, Fransiya, Faris-Farish, Berlin, Vena, Madrid, London-Lundun, Rumo, Vashington, Tokio-Tokiyo, Istanbul*; vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodalovchi so'zlar: *mart, desyat*; sanoat va transport sohalariga oid nomlar: *vagon, traktur, avtomobel*; aloqa sohasi leksikasi: *tilifonist, tilifun, tilgirom-telegram, tilfonogram*; etnik nomlar: *o'rus, farang, yunon, lotin, nemis* va boshqalar. Dissertatsiyada bu lug'aviy qatlamga mansub leksemalar 15 ta mavzuiy guruhga ajratilib tahlil etilgan. Ko'rinadiki, Ibrat asarlarida rus tili va u orqali kirib

kelgan baynalmilal leksik birliklar doirasida toponimlar, sanoat va transport sohalariga oid, mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar hamda madaniyat, sanʼat va maorifga oid terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Bu holat oʻsha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi tub oʻzgarishlar bilan izohlanadi.

Bobning “Ibrat asarlarida qoʻllangan soʻzlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi” deb nomlangan uchinchi boʻlimida Isʼhoqxon Ibrat asarlarida qoʻllangan sinonim, antonim va omonim leksemalar aniqlanib, ularning semantik-funksional, kontekstual tahlili amalga oshirilgan. Maʼlumki, maʼnodosh soʻzlar muayyan tilning lugʼaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi muhim lugʼaviy vosita, lingvistik hodisadir. Shoir va noshir, pedagog Isʼhoqxon Ibrat asarlarida leksik sinonimlar salmoqli oʻrin egallaydi. Ibrat asarlari matnidagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga eʼtiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq maʼnodosh soʻzdan ifoda maqsadi va mazmuni uchun eng maqbul birini tanlashi boʻlsa, ikkinchisi, ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq maʼnodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadida uygʻun holda qoʻllashi masalasi. Ibrat ijodiga mansub asarlarda yuqorida qayd qilingan har ikki holat ham kuzatiladi. Masalan: *Bir asokiri shonahu ilan oʻtub borub turur ekan, bir hammomdan **obi** mustaʼmal chiqib, navdan oqib turgan ekan. Ulamolarga xitob qilibdurki: “Bul **suv** hukmi shariʼatda nimadur?” deb. Ulamo aytibdurki: “Taqsir, shariʼatda haloli joriy, ammoki, tabiat tortmas!” degonida: “Shariʼat hukmigʻa qaramagan tabiatni tashlamoq lozim!” deb hurmati shariʼat deb bir ovuch ichgan ekan*¹³. Ushbu oʻrinda *suv* va *ob* leksemalarining maʼnodoshligi asosida umumiy fikr yoʻsinida har ikki maʼnodosh ham oʻz oʻrni va vazifasiga ega. Quyidagi nutq parchasida esa qoʻllangan *zamin* va *yer* sinonimlari juft holda ishlatilib, fikrning taʼsirchanligini taʼminlash bilan birga matn muallifining oʻziga xos ifoda uslubini namoyon qilishga xizmat qilgan: *...Ommaga hayot **zamin-yerlarga** faxol-xoshok solub oʻtquzub, bir kun koʻchada yurub, arboblar choqirub, munodiy aytub, faloniynikiga nonga yoki oshga deb, bir kun osh, bir kun non taom yedi* (TA, 187-bet). Keltirilgan misollarda qoʻllangan *ob* va *suv*, *zamin* va *yer* soʻzlari sinonim hisoblanib, *ob*, *zamin* fors-tojik tiliga, *suv*, *yer* esa oʻzbek tiliga xos leksemalardir. Adib asarlarida sinonimik qatorida ayrim eskirgan lugʼaviy qatlam birliklari ham faol qoʻllangan. *Qurugʻaydi **koʻz yoshim** ul parilar ilkidin, Seli **ashkimni** koʻrgach, chekti barcha domonlar* (TA, 182). Ishda, shuningdek, adib asarlarida emotsional-ekspressiv ifoda vositasi sifatida qoʻllangan *ulfat*, *oʻrtoq*, *doʻst*, *oshna* kabi ot tukumiga oid sinonimlarning; *ado qilur*, *bitirur* kabi feʼl guruhiga mansub sinonimlarning; *toza*, *ozoda*, *pok*, *musaffo* kabi sifat guruhiga mansub sinonimlarning semantik tabiati, genetik tarkibi, qoʻllanish xususiyatlari izohlangan.

Isʼhoqxon Ibratning ijodiga mansub asarlar matnida qarama-qarshi maʼnoli leksik birliklar ham faol qoʻllanilib, muallifning ijtimoiy gʻoya va qarashlari talqin-u tavsiflarining oʻquvchilar tomonidan toʻgʻri va tez, taʼsirchan anglanilishida muhim oʻrin egallaydi. Misol uchun quyidagi nutq parchalariga

¹³ Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – Б.97. Keyingi misollar ham shu manbadan olindi, TA qisqartma shaklda sahifasi koʻrsatildi.

diqqat qilaylik: *Murodxonni hukumati bir haftaga yetdi, olami foniydan ketdi, baqo mulkiga yetdi, rahmatullohi alayh!* (TA, 108-bet). Mazkur jumla tarkibida qoʻllangan *olami foniy* izofali birikma oʻtkinchi hayot maʼnosida, *baqo mulki* esa boqiy, yaʼni *oxirat dunyon* maʼnosini ifodalab, oʻzaro antonimik munosabat va tushunchalar ifodasi sifatida muallif ijodiy maqsadini namoyon qilishga xizmat qilgan. Ushbu oʻrinda inson, kishi hayotiga nisbatan qoʻllanuvchi *ketmoq* (*olami foniydan*) va *yetmoq* (*baqo mulkiga*) antonim feʼllarining “*hukumat*” tushunchasi bilan aloqadorlikda qayd qilinishi ham matn muallifining oʻziga xos uslubi va mahoratidan dalolat beradi. Adib asarlaridagi antonimlarning baʼzilari kontekstual xarakter kasb etgan. Kontekstual yoki funksional-semantik antonimlar leksemaning maʼno imkoniyatlarini kengaytirib, muallifning lingvistik mahoratini aks ettirgan: *Ibrat olsunlar hama ishchi buning mazmunidin, Ishlasang, qandingni ol, gar dangasa boʻlsang zahar* (TA,76). Muallif misolda keltirilgan *qand* va *zahar* soʻzlaridagi ichki zid maʼnolilik xususiyatlarini eʼtiborga olib, ularni antiteza usulida oʻzaro zid maʼnoda faollashtirgan. Natijada kontekstual antonimiya namunasi yuzaga kelgan.

Maʼlumki, nutqda omonim soʻzning qaysi maʼnosida ifodalanayotgani kontekstda reallashadi. Ibrat asarlaridagi omonim soʻzlarning kontekstual maʼnolariga eʼtibor qaratamiz: *Koʻzum qarosi kuygayki, boshqaga qaragam, Agar gapursam, tilimni tilim-tilim qilasiz* (TA,57-bet). “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”da *til* soʻzining quyidagi maʼnolari izohlangan: “Til I *ot*. Anatomiya termini. Taʼm-maza bilish organi. Til II *feʼl*. Uzunasiga kesib, qismlarga ajratmoq”¹⁴. Yuqoridagi misrada qoʻllangan *tilim* omonim soʻzi tarkibidagi *-im* qoʻshimchasi ham omonim: 1) I shaxs (birlik) egalik shakli; 2) soʻz yasovchi qoʻshimcha. Baytdagi *tilim* omonimi quyidagicha tahlil qilinadi: *til (ot) // -im (egalik sh.); til (feʼl) // -im (soʻz yasovchi q.)*. Koʻrinadiki, omonim asosga omonim qoʻshimcha qoʻshilgan. Shoir ayni oʻrinda badiiy sanʼat yaratish bilan bir qatorda, ohangdoshlik, soʻz oʻyinini ham vujudga keltirgan. *Yoshlar bazm-u taashshuq suhbatlari gul chehralar, Birla doim ijtihod-u qarilar koʻzida yosh* (TA,62-bet). Keltirilgan parchadagi *yoshlar bazm-u taashshuq suhbatlari gul chehralar* misrasida *yosh* soʻzi inson hayotidagi bosqich, *davr, umr* maʼnosida, *Birla doim ijtihod-u qarilar koʻzida yosh* misrasida esa *koʻz yoshi* maʼnosida qoʻllangan. Ushbu oʻrinda muallif omonim soʻzlarni sheʼriy nutq taʼsirchanligi, badiiyligini oshirishga xizmat qildirilgan. Leksik birliklardan oʻz oʻrnida foydalana olish ijodkordan til ilmini teran bilish, zukkolikni talab etish bilan birga, ulardan muayyan muloqot maqsadi va nutq sharoiti, vaziyatiga mosini tanlab ishlatish mahoratini ham talab qiladi. Aynan shunday talab vaziyatini toʻgʻri anglagan adib oʻz asarlarida shakldosh til birliklaridan unumli va samarali foydalanib, oʻzbek tilining boy imkoniyatlarini namoyish qila olgan.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi “**Ibrat asarlari tilining derivatsion va morfologik aspekti**” deb nomlanib, unda Isʼhoqxon Ibrat asarlarida qoʻllangan yasama soʻzlar, uzual va okkazional yasama soʻzlarning derivatsion, morfologik

¹⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 129.

xususiyatlari tahlil qilingan, ijodkor asarlaridagi ayrim birliklarning morfologik tadqiqi amalga oshirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi “Ibrat asarlarida qo‘llangan yasama so‘zlarning umumiy xususiyatlari” deb nomlangan bo‘lib, unda adib asarlari leksikasida muhim o‘rin tutgan ot, fe‘l, sifat va ravish turkumiga oid yasalmalar tahlil qilingan. Manbalarda qayd qilinishicha, hozirgi o‘zbek adabiy tilida 50 dan ziyod ot yasovchi qo‘shimcha mavjud. Lekin ularning hozirgi so‘z yasalishidagi ishtiroki bir xil emas. Ayrim qo‘shimchalar ot yasalishining faol vositalari hisoblanib, ular yordamida ko‘plab otlar yasalgan va yasalayotgan bo‘lsa, ba‘zilari esa unumsiz, sanoqli miqdordagi ot yasalishida qatnashadi, xolos. Ot yasovchilar orasida *-lik* qo‘shimchasi serunum sanalib, asosan, ot, sifat va ravish so‘zlardan ot yasaydi¹⁵.

Ibrat asarlarida ham *-lik* qo‘shimchasining asosdan anglashilgan ma‘noga xos holatni ifodalovchi so‘zlarni: *Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt, Nuri diydam, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz* (TA, 47-bet); asosdan anglashilgan belgili holatni ifodalovchi so‘zlarni: *Faqirliqqa aylamaslar majlisingni orzu, So‘zlama dahr ahliga, Ibrat, solib og‘zingga tosh* (TA, 66-bet); belgi bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, belgi otini yasashi: *Xonning muqobala qilmoqg‘a qodir bo‘lmay, fuqaroni(ng) berag‘batligi, aning ustig‘a Rusiya tarafidan Xo‘qand o‘tgan bir savdogarni(ng) moli Mahram degan yerda talon bo‘lub* (TA, 83-bet) ko‘plab kuzatildi. Shuningek, adib asarlari matnida o‘ziga xos ot yasovchilar sifatida kuzatilgan *-chi*, *-chilik* affeksal morfemalarining ham yasovchi vosita sifatida davr adabiy tilidagi so‘z yasash modellari keng tahlil etildi.

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘ldiki, asarlar matnida fe‘llar, asosan, kompozitsion usulda yasalgan. Ularning yasalish modellari sifat+fe‘l: *Bechoralig‘din o‘zga ish ixtiyor qilma, Harchand xo‘b bo‘lsang, dardi zamon o‘lursan* (TA, 54-bet); fe‘l+fe‘l: *Bizdin erur nishona sarlavha bu gazetga, Sotib oldim, ziynat tobar bu “Tujjor”* (TA, 61-bet); ot+fe‘l: *Alar maishati va foydasig‘a anvo‘i favokihot va ni‘amotlarni kurrai arzda xalq etib, mujdai “xalaqa lakum ma fil-arzi jami‘an” ... Siz uchun yerdagi barcha narsani yaratdi* (TA, 170-bet) shakllarida uchraydi. Biroq tadqiq obyektimizda yuqoridagi yasalish modelining odatdagi tartibi **o‘zgargan shaklda** qo‘llanish holati ham kuzatiladi. Bu qo‘llanish, asosan, she‘riyatdagi inversiya bilan izohlanadi. Masalan: *Yurdi rahi ma‘siyatga mardum, Oyini musulmonlig‘ ayladi gum* (TA, 71-bet); *Jon vahmini qilmayin hamisha, Qilduk mudom gunohi pasha* (TA, 71-bet); *Ko‘b bo‘lsa har kishida sim ila zar, Yursa qayonda qildi kar-kar* (TA, 71-bet).

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, Ibrat asarlarida o‘zbek tilidagi sifat yasalish modellaridan unumli foydalanilgan bo‘lsa-da, biroq ular qo‘llanishida ayrim o‘ziga xosliklar ham mavjud. Masalan, adib ijodida *-li* qo‘shimchasi o‘rnida ayrim o‘rinlarda unga o‘xshash bo‘lgan, odatda, nutqda o‘rinsiz ishlatiladigan *-lik* affiksining *-liq* varianti qo‘llangan. Shuningdek, *-li* qo‘shimchasi o‘rnida *-luq* va *-lig‘* varianti qo‘llanishi kuzatiladi: *Sarv bo‘yluq xush qadam ra‘no sifat, xush keldingiz, Yurishing tovus kibi barno sifat, xush keldingiz.* (TA, 47-bet); *Bo‘ldi bari kibr ila havolig‘, Qurt tushub dumog‘iga navolig‘* (TA, 71-bet). Adibning

¹⁵ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.42.

nazmiy, nasriy asarlari matnida sifatlarning *be-*, *ba-*, *bo-* old qo‘shimchalari bilan yasaliş holati ko‘plab uchraydi. Buni asarlar matnidagi misollarning ko‘pligi ham tasdiqlaydi. Masalan: *Bo‘ldi ulug‘ jinon bag‘rat, Yuqorida joyidur bahurmat* (TA, 71-bet); *Ahli Turkiston bu kunda, shukr, beisloh emas, Intishori ma‘rifat xattida beimlo emas* (TA, 63-bet); *Ul kishi bu aqcha bilan Maskov borub, bohuzur aysh qilib yotgan ekanlar* (TA, 133-bet). Ibrat ijodida *-ona* affiksi bilan yasalgan ravishlar uchraydi: *Millatimiz tili jaroiddur, so‘zlar endi bular dalirona, Ismi noshirki Obidu Mahmud, chiqsa shoyad muvaffaqiyatona, Yo‘q bu vaqtda hech nosihlar, Qilsa to pand har musulmonona* (TA, 59-bet). Umuman olganda, Is‘hoqxon Ibrat asarlari matnidagi yasama so‘zlar, ularning yasovchi asoslari va yasovchi vositalarida ayrim o‘ziga xosliklar kuzatilsa-da, ularning barchasi hozirgi o‘zbek tili so‘z yasaliş modellari bilan aynanlik kasb etadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “Ibrat asarlarida qo‘llangan uzual va okkazional yasama so‘zlarning derivatsion xususiyatlari” deb nomlanadi. Ibrat asarlarida odatdagi uzual yasama so‘zlar ham, noodatiy okkazional yasalmalar ham faol qo‘llangan. Adib o‘zbek tili so‘z yasaliş qoliplariga mos keladigan unumli so‘z yasovchilar vositasida yasalgan uzual yasama so‘zlardan unumli foydalangan. Ammo kamunum so‘z yasovchilar yoki o‘ziga xos yasaliş xususiyatiga ega yasama so‘zlar ham mavjudligi kuzatiladi. Masalan, *chopmaxona, e‘timodxonona, chopxonona, g‘ussaxonona, ilojxonona* kabi *-xonona* affiksoidi bilan yasalgan uzual yasalmalar shular jumlasidandir. Tilshunos A.Hojiyev *-xonona* qo‘shimchasini quyidagicha baholaydi: “O‘zbek tilidagi ba‘zi lug‘aviy birliklar, ya‘ni so‘zlar morfema vazifasida ham qo‘llanadi (morfemalik xususiyatiga ega) va so‘zga qo‘shib yoziladi. Masalan, *qabulxonona, dorixonona, darsxonona; talabnoma, taklifnoma* so‘zlaridagi *xonona, nomona*. Bunday birliklar adabiyotlarda *affiksoid* deb yuritilishi ham ma‘lum”¹⁶. Demak, mazkur yasalmalar o‘zbek tilida keng tarqalgan yasovchi qism vositasida yasalgan bo‘lib, bu so‘zlarning ayrimi uzual, ba‘zilari okkazional ma‘no kasb etgan: *Ming uch yuz-u yigirma oltida chopmaxona ochmoqg‘a bo‘ldi ruxsat va so‘z berib zamona* (TA, 39-bet.) Yoki: *Bu roqimi jaloli ma‘vosi qal‘aixona, Chopxonona kotibidur, gar so‘rsa har kim olon* (TA, 40-bet).

Is‘hoqxon Ibrat asarlari matnidagi okkazional yasama so‘zlar kamunum model asosida yasalgan, faqat muayyan nutqiy kontekst bilan bog‘liq o‘ziga xos ma‘noda qo‘llangan leksik qo‘llash, individual-uslubiy neologizmlardir. Masalan: *Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat bo‘lar, Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar agar* (TA, 37-bet). Ushbu misolda qo‘llangan *boshchi* so‘zi okkazional yasalma bo‘lib, *boshliq, rahbar* ma‘nosida kelgan va mazkur leksemalar bilan sinonimlik hosil qilgani holda matn tarkibida ma‘noni o‘ziga xos tarzda ifodalashga xizmat qilgan. *Bu daryo-yu aroba mehnatidin aylabon uzlat, Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi* (TA, 44-bet). Ushbu nutq parchasi mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ajratib ko‘rsatilgan leksema o‘zi birikib kelgan so‘z bilan birga *insonparvarlik yordami vagoni* kelganligini ifoda etmoqda. Demak, Ibrat *insonparvarlik* so‘zi o‘rnida *insoniy* so‘zini ma‘no va vazifa jihatdan to‘g‘ri qo‘llagan holda alohida okkazional qo‘llanishni yarata olgan.

¹⁶ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.43.

Ibrat ishlatgan okkazional yasalmalar asosida o‘zbekcha va forscha so‘zlarning transformatsiyaga uchrash holatlari ham kuzatiladi. Masalan, forstojikcha *bekor* so‘zi asosida unga *-a* yasovchisi qo‘shilib *bekora* tarzida qo‘llangan okkazional yasalma *ovora* so‘zi bilan qofiyadoshlik hosil qilgan: *Hama o‘z ishi birla ovora, Ko‘chada yo‘qki xalq bekora* (TA, 50-bet). Keltirilgan matndagi ta‘kidlangan so‘z mavjud lug‘atlarda uchramaydi, ushbu o‘rinda *bekorchi* ma‘nosida qo‘llangan. Demak, *bekora* so‘zi muallif uslubiga xos okkazional yasalmadir. Shuningdek, asarlar matnida joy nomlari, elat nomlarining yasalishi bilan bog‘liq quyidagi kabi o‘ziga xos yasalmalar ham uchraydi: *musulmoniya, mo‘g‘uliyaya, qirg‘iziyaya, mang‘itiyaya, sardiya, o‘zbakiya, qipchoqiya, elatiya* va boshqalar. Bunday okkazional yasalishlar asarlar matnida qo‘llangan qo‘shma so‘zlar orasida ham kuzatiladi: *muravvaj bo‘lib, muhabbat qilib, mutasharri‘ bilib, bemiqdor bo‘lurmiz, ixroj qilgani* kabilar. Is‘hoqxon Ibrat asarlarida qo‘llangan leksemalarning derevatsiyasi uzual va okkazional xususiyatga ega bo‘lib, bu holat adibning o‘zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishi bilan birga, mazkur davrda til boyligiga ijodiy yondashganligidan ham dalolat beradi.

“Ibrat asarlari tilining ayrim morfologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bo‘lim adib asarlari tilining morfologik aspektini yoritishga bag‘ishlangan. Masala mohiyati shundan iboratki, leksik-grammatik shakllar Is‘hoqxon Ibrat asarlari matnida o‘ziga xos tarzda qo‘llangan. Jumladan, adib asarlarida tushum kelishigi qisqargan shaklda: *Xalq o‘ldi emdi tartib, ro‘molga burnin artib, Moshina aylamasdan, kiymas chofon bo‘lubdur* (TA, 32-bet); jo‘nalish kelishigi me‘yoriy *-ga, -ka* affikslaridan tashqari *-g‘a, -a, -na* shakllarida ham: *Jahon hech kimga gardish etmadi iqbolina tavri, Zamona holi mol, qofi unlardan qalaysizlar?* (TA,32-bet); *Ishqing dilu jona jo bo‘lubdur, Jonu dil anga fido bo‘lubdur* (TA, 37-bet) keng qo‘llangan. Jo‘nalish kelishigining *-na* shaklida qo‘llanilishi nasriy asarlar matnida ham ko‘p kuzatildi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining she‘riy asarlarda *-a* shaklida qo‘llanilishi ko‘pincha *[a], [ona]* kabi bo‘g‘inlar bilan tugagan so‘zlar bilan qofiyadoshlikni hosil qilish uchun ishlatilgan. Chiqish kelishigi shakli an‘anaviy she‘riyatdagi kabi *-din* shaklida qo‘llangan: *Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar? Bu tiriklik yili bug‘doyu unlardan qalaysizlar?* (TA, 32-bet).

Adib asarlarida egalik shaklining ishlatilishida odatdagi holatlar bilan birga, III shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasining *-in* shaklidagi qo‘llanilishi kuzatildi: *“Tarixi shohi Jarir”da yozibdur: Islomdan qadim Qubod podshoh zamonida markazi hukumat Qubo shahri bo‘lib, anda mo‘g‘uliyalar podshohlaridan Xushdod degon qalmoq hukumat surub, majuslar qo‘linda edi* (TA, 60-b).

Adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, o‘zbek tili tarixida o‘tgan zamon quyidagi shakllar bilan hosil qilingan¹⁷: *-duq, -duk* affiksli shakl. O‘tgan zamon sifatdoshining *-duq, -duk* affiksli shakli qadimgi yodgorliklar tilida keng iste‘molda bo‘lib, o‘tgan zamon fe‘li vazifasida ham qo‘llangan. Ushbu shakl Ibrat asarlari tilida ham kuzatiladi: *Kasb-u kamoli islom bo‘lmay taraqqiyatda, Holig‘a tushmasun deb etduk buni bahona* (TA, 39-bet).

¹⁷ Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: TDPU, 2012. – Б.57.

-do', -di, -to', -ti affiksli shakllar eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan va u zamon shakllarida tuslovchilarni qo'shish bilan hosil qilinadi: *Elchi bu sozlarni barchaso'n aytdo'* (Sh.tar.). *Vidālasho'b murajiat marāso'mo'no' ada qo'lduq* (Furqat). Tuslanish paradigmasi: *bardo'm, bardo'ḥ, bardo'g', barduq, bardo'ḥo'z, bardo'(lar)*¹⁸.

Ibrat asarlari matnida ham -di shakli faol qo'llangan: *Mandin yashirma yuzlaring, Yoding'a tushdi so'zlaring, Kuydurdi, yorim, ko'zlaring, Ko'rgoni keldim sog'inib* (TA, 31-bet). Quyidagi misollarda -ti affiksli shaklni kuzatish mumkin: *Rusiya davlatiga o'tgandan so'ng bu ishlar ham chandon rivojda bo'lib, tijorati taraqqiy topti... 1312-yillarda bu yerlarga temir yo'l insho o'lub, savdo ishlari yanadan rivojga kirib, taraqqiy topti* (TA, 63-bet). Shuningdek, o'tgan zamon ma'nosi fe'lining ravishdosh shakliga -dur qo'shimchasining qo'shilishi bilan ifodalangan o'rinlar ham uchraydi: *Ey dahr eli bilinglar, turfa zamon bo'libdur, Beandisha xaloyiq fe'li yomon bo'libdur* (TA, 33-bet).

Shart mayli shakli sifatida manbalarda -sa, -sar, -sar qo'shimchalari ko'rsatiladi. Ammo Ibrat asarlarida shart maylining o'ziga xos qo'llanish shakli kuzatildi: *Adling bo'lursa aqvi, izhor aylamas hech, Gar zarra zulm qilsang, xalq'a ayon o'lursan* (TA, 54-bet). Bu o'rinda bo'lsa shakli bo'lursa ko'rinishida ifodalangan. Matn mazmunidan ushbu ifodaning shart mayli ekani anglashiladi.

Orttirma nisbat shakli -dur shaklida ifodalanadi. Ibrat asarlarida bog'lama va kesimlik ko'rsatkichlari ham o'ziga xos tarzda qo'llangan. Hozirgi o'zbek tilidagi -dir qo'shimchasi Ibrat asarlari tilida (demak, o'sha davrda ham) -dur shaklida qo'llangan: *Choyi nondur har kuni nohushtamiz, Tolibi qaymoqdurmiz uch kishi* (TA, 53-bet). Ibrat asarlari matnida hozirgi o'zbek tilidagi *edi, emish, ekan* kabi to'liqsiz fe'llar *edu, emish, ekon* shakllarida faol qo'llanilgan.

Xuddi shunga o'xshash, ammo undan asosning bir xilligi bilan farq qiluvchi holat, ya'ni muayyan bir morfologik birlikning har xil shakllarda qo'llanishi boshqa birliklarda, jumladan, yordamchi so'zlarda ham kuzatiladi. Bu jihatdan, ayniqsa, bog'lovchilar ajralib turadi. Xususan, birgina bilan bog'lovchisi asarlar matnida *ilan, birlan, ila* shakllarida qo'llangan: *Olish-berish tijorati Xo'qand ilan bo'ludur...* (TA, 76-bet); *Yigitga oni o'z qo'ling birla ber...* (TA, 96-bet).

Umuman olganda, bir xil lug'aviy, morfologik birliklarning nutq sharoiti, mazmun-maqсадga ko'ra turli shakllarda qo'llanishi Is'hoqxon Ibrat asarlari tilining eng xarakterli leksik-grammatik xususiyatidir. Ushbu holat adib asarlari morfologik aspektida o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu adib asarlarida qo'llangan barcha so'z turkumlari va turlari: mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, alohida guruh so'zlari uchun ham xosdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ibrat asarlarining tili shoir yashagan davr tilining o'ziga xos leksik, morfologik belgilarini namoyon etadi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek tilining leksik-grammatik xususiyatlarini yanada chuqurroq va batafsilroq o'rganishda Ibrat asarlari qimmatli manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

¹⁸ Shu manba. – B.59.

XULOSA

Jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini berdi:

1. Ma'rifatparvar jadid adibi Is'hoqxon To'ra Ibratning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodiy merosi millatimiz tarixi, madaniyati va milliy adabiyotimiz yuksalishida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, uning tilshunoslik merosi, yaratgan nazmiy, nasriy asarlarining til xususiyatlari XX asr boshlari davr adabiy tilining shakllanishida, zamonaviy o'zbek tilshunosligining taraqqiyotida munosib o'rin tutadi. Xalq, millat kamolotini til bilan bog'lagan boshqa jadidlar qatorida Is'hoqxon Ibrat ham til masalasiga jiddiy munosabatda bo'lib, ijodiy faoliyatida o'zbek tilining sofliğini saqlashga, til bilishning jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor bilan qaradi.

2. Ibrat asarlari tilida salmoqli o'rin egallagan ijtimoiy-siyosiy leksikani mavzuiy guruhlarda tasniflab tahlil qilishda shu narsa aniq bo'ldiki, ularda o'sha davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti, voqeligini aks ettiruvchi so'z va atamalar keng qo'llangan. Mavzuiy guruhlardagi ta'lim-tarbiyaga oid va diniy tushunchalarni, shaxs otlarini, lavozim va mansab, ma'muriy-hududiy bo'linma va binolar, matbuot nashrlari, kasb-kor, turli soha, narsa-buyum, o'lchov nomlarini hamda ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning asosiy qismi lug'aviy tarkibi nuqtayi nazaridan o'z qatlam leksemalari hisoblansa, ayrimlari davr adabiy tilida aks etgan o'zga til elementlaridir.

3. Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasida imkon qadar o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan va bu orqali asarlari tilini sodda, xalq didiga yaqin bo'lishiga intilgan. Shu sababli uning nazmiy, nasriy asarlari matnida o'z qatlam, ya'ni genetik jihatdan umumturkiy va o'zbek tiliga oid so'zlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Genetik jihatdan fors-tojikcha, arabcha leksemalarning qo'llanishi adibning arab va fors-tojik tillarini, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti tili me'yorlarini yaxshi o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Asarlar matnida qo'llangan ruscha va rus tili orqali o'zlashgan baynalmilal leksemalarni esa mazkur davr neologizmlari deb baholash mumkin. Keyinchalik ularning aksariyati yangilik bo'yog'ini yo'qotib, o'zbek tilining leksik-grammatik qonuniyatlariga moslashgani holda o'zlashma so'zga aylangan.

4. Asarlar leksik fondida omonim so'zlar faol qo'llanganligi kuzatildi. Bu esa muallifning leksik birliklardan o'z o'rnida foydalana olganligidan, leksemalarning muayyan muloqot maqsadi va nutq sharoiti, vaziyatiga mosini tanlab ishlatish mahoratini ko'rsatadi. Aynan shunday talab vaziyatini to'g'ri anglagan adib o'z asarlarida shakldosh til birliklaridan unumli va samarali foydalanib, nozik so'z o'yinlarini yaratish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish va she'riy asarlarida qofiyani tugal voqelantirishga erisha olgan.

5. Leksik-semantik munosabatlar voqelanishida sinonim va antonimlar alohida o'rin egallab, til boyligidagi tizimli munosabatlarning muhim jihatini o'zida aks ettiradi. Sinonimik munosabatlar semantik o'xshashlik asosida

voqelansa, antonimik munosabatlar qutbiy semantik farq asosida voqelanishi bilan xarakterlanadi. Ibrat asarlarida qo‘llangan sinonimlar ta’sirchanlikka, takrorning oldini olishga qaratilgan, antonimlar esa voqelikni zidlab, qiyoslab ifodalashga keng imkon bergan.

6. Ibrat asarlarida o‘zbek tili so‘z yasallishining umumiy modellari voqelangan: ijodkor asarlari tilida o‘zbek tilining mahsuldor so‘z yasallish modellari asosida yasalgan o‘zbekcha so‘zlar asosiy o‘rinni egallaydi. *Kelinlik, faqirlik, hukmronlik, rizolik, judolik, xursandlik, ulfatchilik* kabi so‘zlar o‘zbek tili so‘z yasallish modeliga to‘la mos keladi. Kompozitsiya usulida yasalgan *xo‘b bo‘lmoq, kamon o‘lmoq, tavon qilmoq, xalq etmoq, ma‘lum o‘lmoq* kabi so‘zlar o‘zbek tili so‘z yasallish qolipiga mos tushsa, *ayladi gum, qilduk gunoh, qildi kar-kar* kabi qo‘shma so‘zlar yasallishi va qo‘llanishida she’riy uslub talabi bilan ayrim farqlar ko‘zga tashlanadi.

7. *-xona, -garchilik, -dosh, -chi* kabi ot yasovchilar; *be-, ba-, no-, -vor* kabi sifat yasovchilar uzual ma’noli yasama so‘zlar yasallishida; *-iy, -viy, -obod, -iya, -iyat* kabi so‘z yasovchilar esa muallif uslubiga xos okkazonalizmlarning yasallishida vosita bo‘lib xizmat qilgan. Asarlar matnidagi *insoniy (vagon), ozodiy, obodiy, bekora, dilogoh, islomobod, chandovul, musulmoniya, gubirnalik, mang‘itiya, sardiya, o‘zbakiya, qipchoqiya, qirg‘iziya* kabi okkazonal yasallmalarning barchasi muallif tilining morfologik aspekti uchun muhim birlik, shakllar sanaladi.

8. Ibrat asarlarida tushum kelishigining qisqargan shaklda, jo‘nalish kelishigining me’yoriy *-ga, -ka* affikslaridan tashqari *-g‘a, -a, -na* shakllarida keng qo‘llanishi aniqlandi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining *-a* shaklida qo‘llanishida ko‘pincha *[a], [ona]* kabi bo‘g‘inlar bilan tugagan so‘zlar bilan qofiyadoshlikni ta’minlash maqsad qilingan. Chiqish kelishigi an’anaviy she’riyatdagi kabi *-din* shaklida, egalik shaklining III shaxs birlik qo‘shimchasi *-in* shaklida ishlatilgan.

9. Adib asarlari tilida sifatdoshning *-duk, -gon*, ravishdoshning *-ub, -goni*, o‘tgan zamon shaklining *-ti, -dur*, hozirgi zamon shaklining *-yur*, hozirgi-kelasi zamonning *-ur*, kelasi zamonning *-yir, -g‘ay*, harakat nomining *-ur*, orttirma nisbatning *-dur* shakllari kuzatildi. *Edi, emish, ekan* kabi to‘liqsiz fe’llar *ekon, edu* shakllarida, *bilan* ko‘makchisi *ilan, birla, ila* shakllarida qo‘llangan.

10. Til hodisalarini ilmiy, amaliy jihatdan muayyan metodologik asoslarda tekshirish, tahlil qilish, xolis baholash hamda adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari faktlari bilan qiyoslab o‘rganish natijalari jonli xalq tili elementlarining o‘tmishdagi tarixiy holati va xususiyatlarini aniqlashda muhim asos vazifasini o‘taydi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari buning yorqin isbotidir. Adib asarlari tili bo‘yicha lingvistik yo‘nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar o‘zbek milliy tili tarixi, taraqqiyotining XX asr boshlaridagi rivojlanish bosqichi haqida muhim nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЛАТИПОВ МУРОТАЛИ МАННОБОВИЧ

**ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ
ИСХОКХОНА ИБРАТА**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гулистан – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером В2020.3.PhD/Fil 1326.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках на веб-странице Научного совета Гулистанского государственного университета (www.gdu.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Нормаматов Султонбек Эрмаматович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Маматов Абдугофур Эшонкулович
доктор филологических наук, профессор
Турдибеков Мумин Тураевич
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация: Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «19» 06 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 по присуждению учёных степеней при Гулистанском государственном университете (Адрес: 120100, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (99 867) 225-40-42; факс: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована за №19). (Адрес: 120100, город Гулистан, 4-микрорайон. Тел.: (99 867) 225-40-42)

Автореферат диссертации разослан «17» 05 2024 года.
(протокол реестра № 19 от «17» 05 2024 года).



М.Р.Маматкулов
Председатель Научного совета по присуждению
учёных степеней, доктор филологических
наук (DSc), профессор

А.А.Ахроров
Генеральный секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по филологическим
наукам (PhD), доцент

Ф.Г.Шарипов
Председатель Наманганского семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней,
доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На повестке дня в мировом языкознании постоянно находятся в центре обсуждения вопросы изучения исторического развития национальных языков, языковые изменения, исследования и оценки обогащения лексического уровня на основе социально-политических, историко-культурных реалий общества. В развитии того или иного языка важное место занимают события в социально-политической, культурной сферах жизни общества и подробно демонстрирующие их письменные источники. Принимая во внимание тот факт, что взаимосвязь языка и общества отражается в лексике языка и ярко проявляется в исторических, научных и художественных произведениях, созданных на этом языке, исследование произведений определенных творцов в лингвистическом аспекте, объективное решение теоретико-практических вопросов на научных основаниях в таких областях, как языкознание, литературоведение, обществознание, история и культура приобретает научно-практическую актуальность.

В последующем развитии мировой лингвистики большое внимание уделяется изучению взаимоотношений национальных языков, общенационального и литературного языков в различных аспектах, а также вопросу исследования языка художественных произведений для определения места и значения произведений отдельного творца, внесшего достойный вклад в развитие истории национальных языков. Учёт пересечения истории и современности общества в качестве лексики языка этого общества определяет серьезный подход в лексикологических исследованиях. Данная ситуация ставит на повестку дня необходимость лексико-грамматического исследования произведений, относящихся к историческому периоду определенного языка. Это требует определения национального языка и литературы, национальной культуры и факторов развития, а также реализации приоритетных задач в этом направлении.

После обретения Узбекистаном независимости, появилась возможность по-настоящему оценить историю узбекского языка, речевую реализацию языковых возможностей, богатство словарного запаса и его исторические изменения, факторы развития и влияние на них социокультурных факторов. Всестороннее изучение языковых особенностей произведений великих творцов, сыгравших важную роль в становлении народа как нации, важные научно-теоретические выводы, сделанные на этой основе, являются надежным источником научного понимания и освещения языковой системы того времени, практического состояния национального языка на данном этапе, его словарного запаса, грамматического строя, средств изобразительной выразительности, постепенного развития литературного языка. В этой связи особого внимания и признания заслуживает язык произведений националистичных джадидов. Ибо: «Сегодня мы строим в нашей стране свободное гражданское общество, правовое демократическое

государство и опираемся в этом на гуманистические принципы наших предков-джадидов, черпаем в их наследии духовную силу и энергию»¹⁹.

Это требует всестороннего развития узбекского языка, обширного изучения лингвистических явлений, связанных с вопросами лексики, грамматики, методики узбекского языка на здоровой логике и научных основах. В особенности, исследование в лингвистическом аспекте научного, художественного, публицистического наследия узбекских джадидов, творцов, интеллигенции, внесших достойный вклад в развитие узбекского языка в определенный период, определение роли, задачи и значения лексических единиц, грамматических средств в построении и развитии языка, оценка лексико-грамматических изменений являются важными задачами. В частности, в этом направлении приобретает актуальность исследование научно-творческого наследия, языка произведений Исхокхона Ибрата, занимающего достойное место в развитии истории, культуры и духовности узбекского народа.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года №УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 07 февраля 2017 года №УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 21 октября 2019 года №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», от 20 октября 2020 года №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановлениях от 20 апреля 2017 года №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 05 июня 2018 года №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», от 04 октября 2019 года №ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия закона Республики Узбекистан «О государственном языке», а также в ряде других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

